

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI

“K E L I S H I L D I”

TAQU ITI prorektori

_____ D.Sh.Mirdjalilova

2026-yil “ ____ ” _____

“T A S D I Q L A Y M A N”

TAQU rektori

_____ B.A.Tulaganov

2026-yil “ ____ ” _____

OLYGOH KUBOGINI DOIRASIDA
“3D MODELLASH”
TANLOVINI O‘TKAZISH
DASTURI

Toshkent-2026

OLIYGOH KUBOGINI DOIRASIDA “3D MODELLASH” TANLOVINI O‘TKAZISH DASTURI

1. Tanlovni o‘tkazish qoidalar

Ushbu Dastur Toshkent arxitektura – qurilish universitetida o‘tkaziladigan “3D modellash” musobaqasini tashkil etish, boshqarish va o‘tkazish tartibini hamda umumiy qoidalarini belgilaydi.

“3D modellash” tanlovi universitetda o‘tkazilayotgan “Muhandislik oyligi” tadbirlari doirasida o‘tkaziladi. Tanlov talabalarning zamonaviy kompyuter muhandisligi dasturlarida ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini sinash va iqtidorli yoshlarni aniqlashga qaratilgan.

Tanlov davomida ishtirokchilar berilgan namuna-chizmalarni real vaqt rejimida AutoCAD dasturiy muhitida aniq va tezkorlik bilan qayta yaratadilar hamda belgilangan topshiriqqa muvofiq detalarning 3D modelini shakllantiradilar.

Maqsad va vazifalar:

- Talabalarning zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (AutoCAD) bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish;
- Raqamli muhitda binolarning 2D va 3D modellarini yaratish orqali muhandislik masalalariga aniq va tezkor yechim topish qobiliyatini rivojlantirish;
- Yosh mutaxassislarning axborot texnologiyalari va kompyuter grafikasi sohasidagi ijodiy hamda texnik salohiyatini namoyon qilish;
- Sohaga oid innovatsion dasturiy vositalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni oshirish va iqtidorli talabalarni rag‘batlantirish.

Ishtirokchilar tarkibi va maqomi:

Tanlovda Toshkent arxitektura-qurilish universitetida tahsil olayotgan, yoshi 17-30 yoshgacha bo‘lgan bakalavriyat va magistratura talabalari ishtirok etishlari mumkin.

Musobaqada qatnashish uchun belgilangan muddatda “*Kelajak muhandislari-Xalqaro muhandislik festivali*” rasmiy sayti orqali ro‘yxatdan o‘tgan talabalar ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladilar.

Tanlov shartlari individual xarakterga ega bo‘lib, ishtirokchilar yakka tartibda (jamoaviy bo‘lmagan holda) qatnashadilar.

Tanlov bosqichlari:

Ushbu bosqichda mas'ul ishchi guruhi tomonidan yuqoridagi saytdan ro'yxatdan o'tgan nomzodlar ro'yxati shakllantiriladi. Barcha ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar guruhlariga bo'linadi.

Har bir guruhda topshiriqni 100% aniqlikda va eng qisqa vaqt ichida bajargan 3 nafar ishtirokchi g'olib bo'ladi, keyingi bosqichga esa faqat 1-o'rinni egallagan talaba yo'llanma oladi.

Saralash jarayoni finalchilar soni aniqlangunga qadar bir necha bosqichda davom etishi mumkin.

Final bosqichi: Oliygoch bosqichida eng yaxshi natija ko'rsatgan ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.

Final bosqichida taqdim etilgan murakkab chizma va 3D model vazifasini eng tez va xatosiz bajargan 3 nafar mutloq g'olib (I, II, III o'rinlar) aniqlanadi.

Texnik va dasturiy ta'minot:

Musobaqaning yagona ishchi muhiti - AutoCAD dasturi (interfeys ingliz tilida).

Ishtirokchilarga o'z shaxsiy noutbuklari bilan qatnashish tavsiya etiladi. Bunda noutbukda AutoCAD dasturi o'rnatilgan va ishchi holatda bo'lishi, shuningdek, batareya quvvati va texnik sozligi uchun ishtirokchi shaxsan javobgardir.

Topshiriqlar namunaviy chizmalar va ularning o'lchamlari ko'rsatilgan qog'oz shaklda taqdim etiladi.

Xavfsizlik va tartib-intizom talablari:

Musobaqa davomida ishtirokchilar va tomoshabinlar yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishlari shart.

Elektr uskunalaridan foydalanish:

- Ishtirokchilar kompyuter va noutbuklarni elektr tarmog'iga ulashda ehtiyotkorlik choralarini ko'rishlari, simlarning ochiq qismlariga tegmasliklari lozim;
- Kompyuter vositalarining texnik sozligi va dasturiy ta'minotning to'g'ri ishlashi uchun ishtirokchi shaxsan javobgardir;
- Nosozliklar yoki elektr tarmog'ida uzilishlar yuzaga kelgan taqdirda, ishtirokchi darhol hakamni xabardor qilishi shart.

Tartib va intizom:

- Musobaqa hududida ishtirokchilar va tomoshabinlar tinchlik va tartibni saqlashlari, boshqa ishtirokchilarga xalaqit bermasliklari lozim.
- Musobaqa maydoniga faqat Tashkiliy qo'mita ruxsat bergan shaxslar kirishi mumkin.

Ushbu xavfsizlik va tartib-intizom qoidalarini buzgan ishtirokchilar diskvalifikatsiya qilinadi.

Diskvalifikatsiya (chetlashtirish) shartlari:

Ishtirokchi quyidagi holatlarda hakamlar qarori bilan musobaqadan chetlashtiriladi (diskvalifikatsiya qilinadi):

- Vazifani bajarish jarayonida boshqa ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslarning har qanday shakldagi yordamidan foydalanish;
- Musobaqa boshlanishidan oldin tayyorlangan chizmalarni, bloklarni yoki modellarni o'z ichiga olgan fayllardan foydalanish yoki ularni dasturiy muhitga yuklash;
- Vazifani bajarish davomida internet tarmoqlaridan ma'lumot qidirish, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlar orqali boshqa shaxslar bilan bog'lanish hamda tayyor fayllarni masofadan qabul qilib olish;
- Musobaqa stolida ruxsat etilmagan elektron xotira vositalari (flesh-disklar, qattiq disklar va h.k.) foydalanish;
- Boshqa ishtirokchining ishini nusxalash yoki o'z ishini boshqalarga taqdim etish.

Eslatma: Diskvalifikatsiya qilingan ishtirokchining natijasi bekor qilinadi va u ishtirokchilar ro'yxatidan chiqariladi.

Natijalarni qayd etish va rasmiylashtirish tartibi:

Ishtirokchi topshiriqni yakunlagan vaqtda qo'lini ko'tarish orqali hakamni xabardor qiladi. Maxsus raqam(1,2,3) belgisi tablichkani oladi. Hakam darhol ushbu vaqtni qayd etadi va ishtirokchi faylini tekshirishni boshlaydi.

Xatoliklar aniqlangan holatdagi tartib:

- Agar tekshiruv davomida chizmada o'lchamlar nomuvofiqligi, detallar yetishmasligi yoki texnik talablar (Solid/Loft o'rniga Region/Surface ishlatilishi) buzilganligi aniqlansa, hakam bu haqda ishtirokchiga ma'lum qiladi;
- Bunday holatda ishtirokchi qayd etilgan vaqtni bekor qilgan holda, tablichkani topshiradi va vazifa ustida ishlashni davom ettirishi shart;
- Xatoliklar tuzatilgandan so'ng, ishtirokchi qaytadan qo'lini ko'taradi va hakam yangi vaqtni (egallangan o'rinni) qayd etadi.

Agar hakam vazifa to'liq va xatosiz bajarilganini tasdiqlasa, eng oxirgi qayd etilgan vaqt (o'rin) yakuniy natija sifatida qabul qilinadi.

Vazifani bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt (60 minut) tugagunga qadar ishtirokchi xatolarni tuzatish va ishni qayta topshirish huquqiga ega. 1-2 va 3 o'rin aniqlansa musobaqa muddatidan oldin tugashi mumkin.

2. Baholash mezonlari va texnik talablar

Musobaqada ballar qo'yilmaydi. G'oliblik topshiriqning aniqligi va uni bajarishga sarflangan vaqtga ko'ra aniqlanadi.

Modellashtirishga qo'yiladigan texnik talablar:

- Yaratilgan barcha 3D obyektlar qat'iy ravishda Solid (Hajmdagi yaxlit jism) yoki Loft (Murakkab sirtli yaxlit jism) obyektlari turida bo'lishi shart;
- Region, Surface (Yuza) va 3D Mesh (To'rsimon yuza) ko'rinishida yaratilgan obyektlar hakamlar tomonidan qabul qilinmaydi va vazifa bajarilmagan deb hisoblanadi;
- Barcha detallar chizmada ko'rsatilgan o'lchamlar va radiuslarga 100% muvofiq bo'lishi lozim.

G'oliblarni aniqlash tartibi:

- Vazifani yuqoridagi texnik talablar asosida to'liq va xatolarsiz bajargan ishtirokchi g'olib hisoblanadi;
- Bir nechta ishtirokchi vazifani xatosiz bajargan taqdirda, eng kam vaqt sarflagan talabaga ustunlik beriladi.

Vazifani bajarish uchun maksimal 60 minut vaqt ajratiladi.

3. Natijalarni baholash uchun tuziladigan Ishchi komissiya tarkibi

№	Lavozimi	Familiyasi, ism va sharifi
1	Rais	S.S.Elmurodov - professor
2	Rais o'rinbosari	Z.E.Matniyazov - (PhD), professor
3	Komissiya a'zosi	D.A.Arziyev - dotsent
4	Komissiya a'zosi	J.X.Tajibayev - (PhD), dotsent
5	Komissiya a'zosi	E.E.Cho'lponov – katta o'qituvchi

4. Rag'batlantirish hajmi

O'rin	Rag'batlantirish miqdori
1-o'rin	8 mln.so'm
2-o'rin	7 mln. so'm
3-o'rin	5 mln. so'm

“Dizayn” kafedrasi mudiri, prof.

S.S.Elmurodov